

## **Muxtor Ashrafiy xotirasining abadiylashuvi**

*Ismoilova Fotima Izzat qizi*

*Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi ilmiy hodimi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Muxtor Ashrafiy uy-muzeyining tashkil etilishi, uning huquqiy asoslari, shakllanish bosqichlari hamda ekspozitsion tuzilishi yoritilgan. Shuningdek, muzey fondining tarkibi, ilmiy-ma'rifiy faoliyati va uning o'zbek musiqa madaniyati tarixidagi o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Muxtor Ashrafiy, uy-muzey, muzey tashkil etilishi, madaniy meros, ekspozitsiya, muzey fondi, o'zbek musiqa san'ati, memorial muzey, madaniy siyosat, Toshkent.

O'zbekiston musiqa san'atining kompozitorlikka asos solgan ijodkorlardan biri, birinchi o'zbek dirijyori, murabbiy va publitsist Muxtor Ashrafiy Buxoroda tug'ilganiga qaramay hayotining aksariyat qismini Toshkentda o'tkazdi. Uning ijodiy taqdiri ham shu yerdan boshlandi va Jukovskiy ko'chasidagi uyda musiqachining hayot yo'li tugadi. Muzey tashkil etish to'g'risidagi fikr esa kompozitor vafotidan keyin vujudga keldi. Muxtor Ashrafiy nafaqat o'zbek professional musiqasining asoschilaridan biri, balki butun bir davrning madaniy timsoli sifatida ham qadrlangan ijodkor edi. Shu sababli uning nomini abadiylashtirish masalasi oddiy xotira tashabbusi emas, balki milliy madaniy merosni saqlashga qaratilgan muhim tarixiy ehtiyoj sifatida qaraldi. Ayniqsa, bastakor yashab ijod qilgan muhitni asl holicha saqlab qolish g'oyasi keyinchalik uy-muzey konsepsiyasining shakllanishiga asos bo'ldi. Bu esa Muxtor Ashrafiy hayoti va faoliyatini faqat hujjatlar yoki esdaliklar orqali emas, balki uning yashash muhiti orqali ham o'rganish imkoniyatini yaratdi.

O'zbekiston Hukumatining 1976-yil 22-iyuldagi "Muxtor Ashrafiy xotirasini abadiylashtirish to'g'risida" gi 440-sonli qarori<sup>1</sup> va O'zbekiston SSR Madaniyat Vazirligining 1976-yil 1-oktyabrdagi 301-sonli buyrug'i<sup>2</sup> qabul qilingan. O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Vazirlar sovetining 1976-yil 22-iyuldagi qarori SSSR xalq artisti, professor, Davlat mukofoti laureati Muxtor Ashrafiyning uy-muzeyini tashkil etish to'g'risida hisoblanadi. Unga ko'ra SSSR xalq artisti, professor, SSSR Davlat mukofoti hamda J.Neru va G.Nasir xalqaro mukofotlar laureati, yirik sovet bastakori va dirijyori Muxtor Ashrafiyning sovet musiqa san'atini, o'zbek sovet operasini rivojlantirishdagi, respublika jamoatchiligi orasida klassik va rus musiqa

<sup>1</sup> ЎзМА. Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 401-иш, 86-варақ; Р-837-жамғарма, 41-рўйхат, 3956-иш, 258-варақ.

<sup>2</sup> ЎзМА. Р-2296-жамғарма, 1-рўйхат, 289-иш, 18-варақ; Р-2487-жамғарма,3-рўйхат, 4291-иш, 110-варақ.

san'atini targ'ib etishdagi katta xizmatlarini, shuningdek, yosh ijodiy ziyolilarni tarbiyalashdagi yanada takomillashtirish zaruratini inobatga olib, O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Vazirlar Soveti qaror qiladi:

1. Toshkent shahrida, Jukovskiy ko'chasi K-20, Kv-25 xonadonda (unda M.Ashrafiy yashagan) Muxtor Ashrafiy muzeyini tashkil etish va uni Toshkent Davlat konservatoriyasi tasarrufiga topshirish.
2. Toshkent shahar ijroiya qo'mitasiga Muxtor Ashrafiy oilasiga shahar markazidan kvartira ajratishni topshirish.
3. Muxtor Ashrafiy muzeyini tashkil etish vazifasini O'zbekiston SSR Madaniyat vazirligiga yuklash.

Ushbu qarorni O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasi kotibi I.Usmonxo'jayev hamda O'zbekiston SSR Vazirlar Soveti raisi N.Xudoyberdiyev kabilar imzolagan bo'lib, mazkur qaror Muxtor Ashrafiy shaxsiy merosini davlat darajasida e'tirof etishning muhim huquqiy va madaniy asosini tashkil etadi. Unda bastakor va dirijyorning sovet musiqa san'ati, xususan, o'zbek sovet operasining shakllanishi va rivojlanishidagi beqiyos xizmatlari alohida ta'kidlangan. Qaror orqali Muxtor Ashrafiy yashagan manzilda uy-muzey tashkil etilishi uning ijodiy faoliyatini tarixiy-madaniy muhit bilan uzviq bog'liq holda saqlash va targ'ib etish imkonini yaratadi.

Mazkur qaror o'sha davr madaniy siyosatida ijodkor shaxsiga berilgan yuksak e'tiborning yorqin namunasi hisoblanadi. Chunki sobiq ittifoq hududida ko'plab mashhur san'atkorlarning xotirasini abadiylashtirish ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyining tashkil etilishi o'zbek musiqa san'ati tarixida alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu tashabbus orqali davlat tomonidan kompozitorning nafaqat ijodiy merosi, balki uning pedagogik va jamoatchilik faoliyati ham tarixiy qadriyat sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston SSR Madaniyat vazirligining 1976-yil 1-oktabrdagi buyrug'iga binoan, O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Vazirlar Sovetining 1976-yil 22-iyuldagi 440-sonli "SSSR xalq artisti, professor, SSSR Davlat mukofoti laureati, bastakor Muxtor Ashrafiy muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi qarorni ijro etish maqsadida, Toshkent Davlat konservatoriyasi huzurida Muxtor Ashrafiy uy-muzeyini tashkil etish uchun komissiya tuziladi. Komissiya tarkibida esa Rahmonov M.R. – professor, Toshkent Davlat konservatoriyasi rektori, Solomonova T.E. – dotsent, Toshkent Davlat konservatoriyasi ilmiy ishlari bo'yicha prorektori, Ribnik A.M. – san'atshunoslik fanlari nomzodi, Hamza nomidagi San'atshunoslik instituti direktorining o'rinbosari, Karimova S.S. – O'zbekiston SSR Madaniyat vazirligining kadrlar va o'quv yurtlari boshqarmasi boshlig'i kabilar bor edi.

Mazkur buyruq Muxtor Ashrafiy uy-muzeyini tashkil etish jarayonining amaliy bosqichga o'tganligini tasdiqlovchi muhim ijroiya hujjat hisoblanadi. Unda O'zbekiston Hukumatining 1976-

yil 22-iyuldagi qarorini hayotga tadbiiq etish mexanizmi aniq belgilab berilgan. Xususan, Toshkent Davlat konservatoriyasi huzurida uy-muzeyni tashkil etish uchun maxsus komissiya tuzilishi muzeyni yaratish ishlariga tizimli va ilmiy yondashuv qo'llanilganini ko'rsatadi. Buyruq bilan tasdiqlangan komissiya tarkibiga yetakchi musiqa pedagoglari, san'atshunos olimlar hamda madaniyat sohasi boshqaruv hodimlarining kiritilishi Muxtor Ashrafiy merosini to'plash, tizimlashtirish va ekspozitsiya qilish jarayonlarida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinganidan dalolat beradi. Bu holat uy-muzeyning nafaqat xotira maskani, balki ilmiy-ta'limiy muassasa sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Shu tariqa, mazkur buyruq Muxtor Ashrafiy uy-muzeyining tashkil etilishida tashkiliy-huquqiy poydevorini mustahkamlab, uning keying faoliyat yo'nalishlarini belgilab bergan asosiy hujjatlardan biri sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Komissiya faoliyati davomida muzey fondini shakllantirish, eksponatlarni yig'ish, hujjatlashtirish va kelajakdagi ekspozitsiya konsepsiyasini ishlab chiqish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, Muxtor Ashrafiyning shaxsiy arxivi, qo'lyozmalari, nota to'plamlari, fotosuratlar hamda turli xalqaro safarlariga oid materiallarni yig'ish ishlari katta ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada, muzey fondi oddiy memorial buyumlar yig'indisidan ko'ra kengroq mazmun kasb etib, kompozitor ijodiy laboratoriyasini aks ettiruvchi noyob manbalar majmuasiga aylandi.

1969-yildan to 1975-yilgacha musiqachi yashagan uy qisman ta'mirlanadi<sup>3</sup>. Yerto'la xonalari musiqa saloniga moslab jihozlanadi, bosh kirish yo'li, qayta ta'mirlanadi. Faqat bitta xonadagi – kompozitorning xotira xonasidagi jihozlar o'z xolicha saqlanib qolinadi. Qolgan zallarga ekspozitsiyalar joylashtiriladi<sup>4</sup>. Muzey 1982-yil 11-iyunda kompozitor tavalludining 70-yilligi munosabati bilan faoliyatini boshladi<sup>5</sup>. Muzeyning umumiy hajmi – 345,0 kv metr, muzey ekspozitsiyasi – 240,0 kv.m.<sup>6</sup>ni tashkil etadi. Muzeyga yil davomida tashrif buyuruvchilar soni o'rtacha – 5000 ta, bir oyda tashrif buyuruvchilar soni – 420 tani tashkil etadi.

Ekspozitsiya ikki qavatdagi oltita zalga joylashgan. Muzey eksponatlarining umumiy soni - 16859 tani tashkil etib, shundan, rangtasvir - 30 ta, grafika - 69 ta, haykaltaroshlik - 16 ta, amaliy san'at asarlari - 34 ta, maishiy ashyolar - 111 ta, suratlar - 2013 ta, hujjatlar - 476 ta, numizmatika - 53 ta, boshqa eksponatlar - 14057 tani tashkil etadi<sup>7</sup>. Muzey fondida saqlanayotgan eksponatlar o'zining mazmuniy va tarixiy qimmatini bilan alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, Muxtor Ashrafiyning qo'lyozma notalari, dirijyorlik faoliyatiga oid materiallari, sahna kostyumlari, afishalar hamda tarixiy fotosuratlar XX asr o'zbek musiqa madaniyatining shakllanish jarayonini o'rganishda muhim manba

<sup>3</sup> ЎзМА. Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 399-иш, 3-варақ.

<sup>4</sup> Курьязова Д. Музей иши асослари. – Т.: Toshkent "Lesson press", 2019. – 81 bet.

<sup>5</sup> Ўз МА. М-7-жамғарма, 1-рўйхат, 443-иш, 2-варақ.

<sup>6</sup> Ўз МА. Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 671-иш, 2-варақ; Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 714-иш, 46-варақ.

<sup>7</sup> Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi 2022-yillik hisobotidan. 3-bet.

vazifasini bajaradi. Shu jihatdan muzey kolleksiyalari nafaqat memorial, balki ilmiy-tadqiqot qiymatiga ega fond sifatida ham baholanadi.

Muxtor-Ashrafiy uy-muzeyi tematik-ekspozitsion plani 1980-yilda Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha bo'yicha Bosh ilmiy-ishlab chiqarish boshlig'i K.Kryukov tomonidan imzolangan. Unga ko'ra 9 ta asosiy mavzuga ko'ra muzey bo'ylab 5 ta zal tashkil etilgan. Mavzular ichiga "Bolalik va o'smirlilik yillari. Ijodiy faoliyatining boshlanishi(1912-1936)", "Ijod: musiqiy teatr va konsert-ijrochilik faoliyati(1936-1941)", "Ulug' Vatan urushi yillari(1941-1945)", "Ijodiy kamolot ostonasida(1946-1952)", "Ijodiy kamolot davri(1953-1975)", "M.Ashrafiyning musiqiy kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyati (1947-1975)", "M.Ashrafiyning jamoatchilik faoliyati(1930-1975)", "M.Ashrafiyning xorijiy safarlari(1954-1975)", "M.Ashrafiy xotirasini abadiylashtirish(1975-1980)" kabilar kiradi. Har bir zalda ushbu mavzularga ko'ra M.Ashrafiy hayoti va ijodiy faoliyatini yorituvchi eksponatlar jamlangan.<sup>8</sup>

Tematik-ekspozitsion rejaning ilmiy asosda ishlab chiqilgani muzey faoliyatining tizimli yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Har bir zalning ma'lum tarixiy davr yoki ijodiy bosqichga bag'ishlanishi tashrif buyuruvchilarga Muxtor Ashrafiy hayoti va faoliyatini izchil ravishda kuzatish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ekspozitsiyalarda fotosuratlar, hujjatlar, nota materiallari va shaxsiy buyumlarning uyg'un holda namoyish etilishi muzeyning emotsional-ta'sirchanligini yanada kuchaytirgan.

Shunga ko'ra tematik ekspozitsion planga jami 334 ta foto, 12 ta matn, 3 ta maket, 5 ta kiyim, 1 ta bosh kiyim, 8 ta musiqiy asbob, 39 ta afisha, 2 ta san'at asari, 22 ta suvenir, 8 ta eskiz, 1 ta fotoalbom, 58 ta dastur, 3 ta kitob, 3 ta gazeta qiyqimi, 98 ta hujjat, 1 ta kalendar, 2 ta qolip, 18 ta nota varog'i, 12 ta nota to'plami, 1 ta haykal, 2 ta byust kabilar joylashtirilgan. Shuningdek, tematik-ekspozitsion planda har bir mavzu bo'limining mazmuni bor bo'lib, o'z navbatida yirik mavzular kichik-ichik mavzularni o'z ichiga olgan. Shunga ko'ra to'plangan eksponatlarning har biri haqida qisqacha ma'lumot, o'lchov, material turi, inventar raqami keltirilgan. 1982-yilda ochilgan muzey ushbu hujjatdagi barcha eksponatlarni o'z ichiga qamrab olgan. Keyinroq 2010-yilda esa muzey qayta rekonstruksiya qilinadi va ekspozitsiyaga qisman o'zgartirishlar kiritiladi.

Muzey kolleksiyalarining ro'yxati quyidagilardan iborat:

I. **"Kitob va notalarsiz boshqa materiallar"**; II. **"Boshqa materiallar"**; III. **"Notalar"**; IV. **"Kitoblar"**; V. **"Haykaltaroshlik asarlari"**; VI. **"Grafika asarlari"**;

<sup>8</sup> Министерство культуры Узбекской ССР Музей М.Ашрафи. «Тематико-экспозиционный план». 1980 г.

VII. “Rangtasvir asarlari”; VIII. “Hujjatlar”; IX. “Mukofotlar”; X. “Fotosuratlar”; XI. “Amaliy san’at buyumlari”; XII. “Maishiy buyumlar”.

Uy-muzey faoliyati davomida nafaqat O‘zbekiston, balki xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan san’at arboblari, olimlar, diplomatlar va ijodkorlar tomonidan ham yuksak baholangan. Ayniqsa, muzeyning ijodiy muhiti, memorial ekspozitsiyalari va Muxtor Ashrafiy xotirasini asrab-avaylashga qaratilgan faoliyati mehmonlarda katta taassurot qoldirgan. Bu fikrlar muzeyning “Faxriy mehmonlar kitobi”da yozib qoldirilgan iliq taassurotlarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Muxtor Ashrafiy uy-muzeyiga bir qancha mashhur insonlar tashrif buyurgan bo‘lib, ular o‘z taassurotlarini “Faxriy mehmonlar kitobi”ga yozib qoldirishgan:

1. “M.Ashrafiy muzeyi – bu ajoyib rassom va ustaning hayoti davomidir, u o‘z asarlari bilan muxlislar va tinglovchilarni xursand qilgan va bundan keyin ham quvontiradi... M.Ashrafiy har bir yosh kompozitorda yashaydi. U o‘z dirijyor qalami orqali yangi iste’dodlar armiyasini olib boradi, ular ham uning kabi o‘z mehribon yurtini madh etishadi...” **Bastakor Tixon Nikolayevich Xrennikovning turmush o‘rtog‘i Klara Xrennikova.**

2. “M.Ashrafiy muzeyi – buyuk o‘zbek yoshlik farzandi, bu O‘zbekiston tarixining bir qismidir. Buyuk kompozitor xotirasini saqlashga bo‘lgan muhabbat, muzeyni yaratgan barcha uchun hurmat va chuqur minnatdorchilik hissi uyg‘otadi...” **Uchuvchi-kosmonavt V. Djanibekov.**

3. “Varshavadagi Osiyo va Tinch okeani muzeyi delegatsiyasi nomidan M.Ashrafiy muzeyini qizg‘in kutib olib, tanishtirganingiz uchun chin dildan minnatdormiz... Biz nafaqat do‘st bo‘lishimiz, balki hamkorlik qilishimiz ham mumkin”. **Professor, Osiyo va Tinch okeani muzeyi direktori Andjey Vavzinak.**

4. “...Mehr va qadriyatga to‘la hayot va muzey borligi bilan faxrlanaman. M.Ashrafiy hayratlanarli hayot kechirdi va Undan berilgan yer yuzidagi iste’dodini abadiylikka olib ketdi”. **O‘zbekiston Xalq rassomi, akademik Bahodir Jalol.**

5. “...Intellectual faoliyat o‘rniga muzeydan yaxshiroq dizayn bo‘lishi mumkin emas, u kolleksiyalarning ko‘rgazmalari va vaqt nafasini o‘z ichiga oladi. Men odamlar, voqea va buyumlardan hayratlandim”. **Professor E. Ostrovskiy.**

6. “So‘nggi yillarda bu korifey musiqiy madaniyat uyi – M.Ashrafiy muzeyi biz uchun ham uydur. Bu yerda biz repetitsiya qilamiz, ijod qilamiz, chunki muzeyning aurasini ijodga ilhom beradi. Rahmat sizga”. **“Retro-YALLA” ansambli ishtirokchilari – Nizamutdinov Sh., Fatxullin A., Arifxodjaev R., Juraev B.**

7. “M.Ashrafiy tarixini ko‘rish va o‘rganishdan xursandman. Muzey devorlarida doimo O‘zbekiston madaniyat va san’at xodimlari bilan uchrashuv kutib turibdi...”

M.Ashrafiy muzeyiga, xodimlariga va mehmonlariga baxt va farovonlik tilayman”.

**Rassom-grafik D. Urazaev.**

8. “Bu uyga hurmat bildiraman, u hamisha xotira va musiqa bilan to‘la”.

**O‘zbekiston Xalq shoiri A. Faynberg.**

9. “Muzey doimo madaniyat va san’atning markazidir. E’tiboringizni ijodiy intellektual vakillarga qaratganingiz uchun rahmat. M.Ashrafiy muzeyi va xodimlariga ibodatli mehnatlari uchun minnatdorman”. **San’atshunoslik doktor, professor N.S.**

**Yanov-Yanovskaya.**

10. “...Sizning muzeyingiz O‘zbekiston va Ozarbayjon madaniy aloqalarini kengaytirishga katta hissa qo‘shadi. Katta rahmat”. **Ozarbayjon Respublikasi elchixonasi maslahatchisi Akif Aliyev.**

11. “Bu yerda doimo bo‘lish juda yoqimli. Muxtar Ashrafovich ruhi bu uyda hamisha yashaydi...” **O‘zbekistonning xizmat ko‘rsatgan artisti S. Parkova.**

12. “Biz... M.Ashrafiy uy-muzeyining bezagi va ijodiy merosiga hurmatimiz chuqur”.

**Rossiya yozuvchisi R. Nizamov.**

13. “...Muzeyga tashrif mening hayotimda bayramga aylandi... “Melodiya” firmasi topshirig‘i bilan Toshkent gramplastinka zavodida M.Ashrafiyning “Dilorom” operasi uchun qoplamalar tayyorlaganda uning bilan shaxsan uchrashdim. Bu unutulmas uchrashuvlar edi. U menga musiqiy grafikani qanday tayyorlashni o‘rgatdi. Muzey tashkilotchilariga muzeyning a‘lo darajada saqlanishi uchun rahmat”.

**O‘zbekiston xizmat ko‘rsatgan san’at xodimi A.V. Akudin.**

14. “Muzey xodimlariga minnatdorman, ular buyuk shaxs – musiqachi M.Ashrafiy xotirasini saqlaydi”. **Uning shogirdi Quvonch Usmonov.**

15. “Muxtar Ashrafiy nomi barcha musiqachilarning yuragini isitadi, biz uning musiqasida tarbiyalandik, uni dirijyor va buyuk ustoz sifatida bildik”. **O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi professori M. Gumarov.**

16. “...Muxtar Ashrafiy shunchalik yorqin va mustaqil shaxs ediki, men har bir qo‘l harakatini eslayman, har bir so‘zini eshitaman. U qattiq, lekin demokratik va juda mehribon ustoz edi. U atrofni yoritib turardi...”

**O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi professori, dirijyor V. Neymer.**

17. “M.Ashrafiy muzeyi – XX asrning buyuk kompozitori hayoti, ijodi va muhiti haqida bebaho bilim manbai. Muzey xodimlarining merosni kelajak avlod uchun saqlashga bo‘lgan mehri alohida qayd etiladi. Muzeyda o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar doimo qiziq va M.Ashrafiy ijodiy faoliyatining yuksak ruhiy nuri bilan to‘la”.

**O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi professori I. Galushenko.**

18. “Men hamisha Muxtor Ashrafiy haqidagi suhbatlardan qiziqardim: u kim edi? Qanday ishlar qilgan? U haqida fikrlar qanday edi? Bu savollarga javobni men bu uy-muzeyda oldim. Muzei xodimlariga bu ezgu ishlarida omad tilayman”. **O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, vazir o‘rinbosari Bahodir Madjitovich Ahmedov.**

19. “M. Ashrafiy muzeyiga ko‘proq ijodiy kechalar bo‘lishini, ular orqali bizning unikal musiqiy san’atimizni jahon sahnalariga ilgari surish imkonini berilishini tilayman... Siz O‘zbekiston xalq merosini targ‘ib qilishda har qanday muzeydan ustunlik qila olasiz. Barcha ishlaringizda ijodiy muvaffaqiyat tilayman”. **O‘zbekiston madaniyati xodimi, san’atshunos, professor, kinorejissyor Bahodir Ahmedov.**

20. “GABT A. Navoiy nomli teatr va M. Ashrafiy muzeyi o‘rtasida ko‘p yillik ijodiy hamkorlik rivojlanib, mustahkamlanib kelmoqda. Bu ittifoqning chuqur ildizlari va an‘analari bor... Biz doimo muzey tadbirlarida ishtirok etishdan mamnunmiz va o‘z hissamiz va energiyamiz bilan haqiqiy san’at va O‘zbekiston opera madaniyati rivojiga yordam bermoqdamiz – Muxtar Ashrafiy orzu qilganidek”. **GABT rejissor-postanovkachi va ssenograf, O‘zbekiston xizmat ko‘rsatgan san’at xodimi A. Slonim.**

Bugungi kunda Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi nafaqat buyuk bastakor xotirasini saqlovchi memorial maskan, balki o‘zbek musiqqa madaniyati tarixini o‘rganish, targ‘ib qilish va yosh avlodga yetkazishda muhim ilmiy-ma’rifiy markazlardan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Muzei fondida jamlangan noyob eksponatlar, tarixiy hujjatlar va ijodiy meros namunalari XX asr o‘zbek professional musiqqa san’ati taraqqiyotini tadqiq etishda bebaho manba hisoblanadi. Shu jihatdan Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi milliy madaniy merosni asrash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim tarixiy-madaniy ahamiyat kasb etadi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. ЎзМА. Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 401-иш, 86-варақ; Р-837-жамғарма, 41-рўйхат, 3956-иш, 258-варақ.
2. ЎзМА. Р-2296-жамғарма, 1-рўйхат, 289-иш, 18-варақ; Р-2487-жамғарма, 3-рўйхат, 4291-иш, 110-варақ.
3. ЎзМА. Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 399-иш, 3-варақ.
4. Kuryazova D. Muzei ishi asoslari. – T.: Toshkent “Lesson press”, 2019. – 81 bet.
5. Ўз МА. М-7-жамғарма, 1-рўйхат, 443-иш, 2-варақ.



6. Ўз МА. Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 671-иш, 2-варақ; Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 714-иш, 46-варақ.
7. Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi 2022-yillik hisobotidan. 3-bet.
8. Министерство культуры Узбекской ССР Музей М.Ашрафи. «Тематико-экспозиционный план». 1980 г.